

TILSHUNOSLIKDA FRAZEMA TADQIQI BOBIDAGI XORIJIY NAZARIY QARASHLAR

Shodiyev San'at Ergashevich

Samarkand davlat chet tillar Instituti professor v.b.

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 19.12.2025

Revised: 20.12.2025

Accepted: 21.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

*fraza, ibora, turg'un
birikma, gap
qolipidagi frazema,
kommunikativ
frazema, nominative
frazema, sintaktik
frazema*

Maqola gap shaklidagi turg'un birikmalar, frazemalar hamda ularning tilshunoslikda o'rganilish holatini xorijiy linguistikada yoritilishiga bag'ishlangan. Unda gap qolipidagi turg'un birikmalar, frazemalar va erkin tuzilgan gaplarning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, gap qolipidagi turg'un birikmalarning talqini muhokama qilinib, turg'un gap bilan gap o'rtasidagi funksional chegarani aniqlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchi ushbu maqolada keltirilgan misollar yordamida o'z xulosalarini bayon etadi.

Bugungi kunda tilshunoslikda frazemalar nafaqat semantic hodisa sifatida, balki yaxlit struktur birlik sifatida o'rganilib e'tirof etiladi. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlab xorijiy tilshunoslikda frazema tadqiqiga e'tibor qaratilib, Yevropa va rus tilshunoslari tomonidan izchil o'rganilgan. Ushbu maqolada tadqiqotchi frazemalarning semantik yaxlitligi, barqarorligi, struktur xususiyatlari hamda nutqdagi funksional imkoniyatlari borasidagi nazariy bilimlar tahliliga bag'ishlangan.

Tilshunos olimlar ilmiy tadqiqot ishlarida o'z mulohazalarini keltirishgan, bunday mulohazalar L.P.Yakubinskiy ishlarida ham kuzatiladi. Uning fikricha, sintaktik frazemalar shablonli qurilmalar bolib, mazkur shablonlar nutqiy jarayonda suhbatdoshlarning

soʻzlayotgan mavzulariga mos ravishda biriktiriladi va individual qismlarga boʻlinmagan holda takrorlanaveradi, ular yangi maʼlumotdan darak bermaydi²¹.

Agar L.P.Yakubinskiyning fikriga qoʻshiladigan boʻlsak, barcha morfema va soʻzlarni til belgilari deb emas, balki til shablonlari sifatida qabul qilishimizga toʻgʻri keladi. Ammo kommunikatsiyada til belgilari suhbatdoshlarning soʻzlayotgan mavzulariga mos ravishda paradigmatic qatordan sintagmatic qator yoʻnalishiga biriktiriladi va individual qismlarga boʻlinmagan holda qoʻllanadi. Shu bois frazemalarni shablonlar tarzida oʻrganish masala mohiyatini chigallashtiradi, xolos. Negaki, ular ham nutqda til belgilari sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari, frazemalar nutqiy jarayonda suhbatdoshlarning soʻzlayotgan mavzulariga mos ravishda biriktiriladi va yangi maʼlumotdan darak bermaydi deyishda ham lingvistik maʼno yoʻq deb oʻylaymiz, chunki barcha belgilarning mantiqan soʻzlanayotgan mavzularga daxldor holda vazifa bajarishi tabiiydir. Agar frazemalar yangi maʼlumotdan darak bermasa, ularni ishlatishga ne hojat degan savol tugʻiladi. Shu bois nutqiy jarayonga biror bir element kiritildimi, demak uning qandaydir maqsadda voqe topishi izoh talab qilmaydi. Boshqacha aytganda, har qanday til belgisi statiklik va virtuallik koʻrsatkichidan dinamiklik va aktuallik maqomiga oʻzgarganda, u yangi xabar berish uchun xizmat qiladi. Buni quyidagicha izohlashimiz mumkin:

If I need to shoot, I'll shoot! And I won't bat an eyelid!

Berilgan jumladagi I won't bat an eyelid frazemasi gap qolipida boʻlib, maʼlum bir harakatni hech ikkilanmasdan bajarish maʼnosini bermoqda. Shunday ekan, mazkur element nutq momentida soʻzlovchi tomonidan oʻziga yuklatilgan vazifani ado etish maqsadida qoʻllanmoqda. Shu holatda uni hech qanday maʼlumotdan darak bermaydi deb hisoblash mumkinmi? Yoʻq, albatta. Zero, inson nutqini maʼlumot yetkazish uchun tuzadi. Bundan tashqari, u shablon emas. U til belgisi hisoblanuvchi morfemadan katta boʻlgan soʻz oʻrnida qoʻllanayotgan obrazli ifodadir, chunki ibora tarkibiy qismi sifatida kelgan soʻz, agar u oʻzining lugʻaviy maʼnosini mutlaqo tark etgan boʻlsa ham, shaklan soʻzdir²².

Axborot moddiy jihatdan belgi orqali uzatiladi, ammo u faqat ifodalovchi emas, balki ifodalanuvchi xususiyatiga ham ega. Uning asosiy shartlari shakl va mazmunda boʻlib, shakl ifodalovchi, mazmun esa ifodalanuvchi hisoblanadi.

²¹ Bu haqda qarang: Якубинский Л.П. О диалогической речи // Избранные работы. Язык и его функционирование. – М.: Наука, 1986. – С.17-58.

²² Шодиев С.Э. Турғун сўз бирикмаларининг синтактик деривацияси: Филол.фан.б.фалс.док...дисс. – Самарканд: СамДУ, 2020. – Б.16.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, nutqda gap qolipidagi frazemalarning ishlatilishi til belgilarining mexanik holatda sintagmatik qator yo'nalishiga ko'chirilishini emas, balki nutq egasining til sistemasi va nutqiy muhit bilan munosabati natijasini taqozo etadi. B.N.Turniyozov to'g'ri ta'kidlaganidek, har qanday sintaktik strukturaning shakllanishi va real qo'llanishi so'zlovchining nutqiy faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Binobarin, til faktorlarini so'zlovchisiz, so'zlovchini esa til faktorlarisiz tasavvur etish qiyin²³.

N.M.Shanskiy frazemalarni ikki guruhga bo'lib o'rganadi: 1) kommunikativ xarakterdagi frazemalar; 2) nominativ xarakterdagi frazemalar. Olim birinchi guruhga gap qolipidagi frazemalarni kiritib, ularning predikativli birikmalar ekanligini ta'kidlaydi: Без труда - не вытащишь рыбку из пруда kabi. Ikkinchi guruhdagi frazemalarga esa nopredikativ birikmalardir deb baho beradi: трудовые успехи, поджигатели войны kabi²⁴.

Masala tavsifiga bunday yondashuv V.L.Arhangelskiy ishlarida ham kuzatiladi. U so'z va so'z birikmasi qolipidagi frazemalarni predikativlik belgisiga ega bo'lmagan, gap qolipidagi frazemalarni esa predikativlik belgisi mavjud bo'lgan birliklar tarzida o'rganadi²⁵.

Fikrimizcha, frazeologik birliklar qanday shaklda mavjud bo'lmasin, ularni predikativli birliklar sifatida ham tadqiq etish mumkin. Tilshunoslikda predikativlik hodisasi aksar hollarda gapga bog'lab o'rganilgani bois, ular shunday xulosaga kelgan bo'lishlari mumkin. Masalan, N.S.Valgina predikativlikni fe'l bilan bog'lab, uning gapga xos ekanligini, A.G.Rudnev predikativlikni gapning bosh bo'laklari bilan ifodalanishini, A.N.Gvozdev predikativlik gap orqali ifodalanib, nimaningdir tasdiqlanishi yoki inkor etilishini anglatishini ta'kidlashadi²⁶.

Bizningcha, predikativlik til birliklarining voqelikka munosabatini taqozo etuvchi, so'z va so'z birimlari orqali ham ifodalanishi mumkin bo'lgan hodisa hisoblanadi. Negaki, predikativlik mantiqiy hodisa bo'lib, uning ifodalanishi maxsus ohangga ham bo'g'liq

²³ Турниёзов Б.Н. Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик қурилмалар деривацияси. Монография. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2008. – Б.66.

²⁴ Qarang: Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. – М.: Просвещение, 1972. – С.201-202.

²⁵ Qarang: Архангельский В.Л. Проблема устойчивости фразеологических единиц и их знаковые свойства // Проблемы устойчивости и вариативности фразеологических единиц. Материалы межвуз. симпозиума. – Тула: Тульск. госпединститут, 1968. – С.21-29.

²⁶ Bu haqda qarang: Валгина Н.С. Синтаксис современного русского языка. – М.: Высшая школа, 1973.

– С.14; Руднев А.Г. Синтаксис современного русского языка. – М.: Высшая школа, 1968. – С.34-35; Гвоздев А.Н. Современный русский литературный язык. II. – М.: Просвещение, 1973. – С.7.

bo'lad. Jumladan, yuqoridagi поджигатели войны birikmasini maxsus ohangda aytsak, u predikativlik ifodalab, matn maqomida ham kelishi mumkin. Shu bois masala mohiyatiga biryoqlama yondashish frazemalarning o'rganilishi mohiyatini chegaralab qo'ygandek bo'lad.

B.N.Turniyozov gap qolipidagi frazemalar tadqiqida ularning kauzativ xususiyatlarini yoritib, derivativ jihatdan tahlil etadi. B.N.Turniyozov gap qolipidagi frazemalarning turg'un holatga kelguniga qadar bosib o'tgan derivativ voqelanishini tekshirishda ularning ichki sintaktik strukturasi elementlarining o'zaro bog'lanishi konstruksiyasini analiz qilish kerakligini, idiomaning derivatsion tarixini izohlash uchun uni nanosintaktik nuqtayi nazardan tahlil qilish zarurligini, bu jarayonda leksik elementlarning sintaktik strukturasi aniqlashning o'ziga xos usullari mavjudligini, iboralarning sintaktik tuzilishi superset prinsipi deb nomlanuvchi metod orqali o'rganilishini, bunda ibora leksik element sifatida kengaygan sintaktik strukturalar kompleksini tashkil etishini o'rinli ta'kidlab o'tadi va misol sifatida quyidagi sintaktik frazemaning derivatsion voqelanishini keltiradi:

(Ular) nariga olib borib turibdilar $[V=(V\text{-}ib+V\text{-}ib+V); N+V; N+X\text{-}ga+V]$. (Ular) beriga olib kelib turibdilar $[V=(V\text{-}ib+V\text{-}ib+V); N+V; N+X\text{-}ga+V]$. (Ular) nariga olib borib, beriga olib kelib turibdilar $[V=(V\text{-}ib+V\text{-}ib, V\text{-}ib+V\text{-}ib+V); N+V; N+X\text{-}ga+V; N+X+V+X\text{-}ga+V]$. Nari oborib, beri opkelib turibdilar $[X+V, X+V]$. Nari oborib, beri opkelib turmoq $[X+V, X+N]=azoblamoq$ (ta'sir etmoq – kauzativ).

Tahlil natijasi o'laroq, B.N.Turniyozov yuqorida keltirilgan gap qolipidagi frazemaning ham o'z ichki mikrosintagmatik strukturasi mavjudligini, undagi har bir element semantik va sintaktik jihatdan ma'lum bir vazifani bajarishini hamda sintez oqibatida «azoblamoq» mazmunini ifodalovchi kauzativ frazemaning hosil bo'lishi ravshanlashayotganining ilmiy tavsifini beradi²⁷. Darhaqiqat, B.N.Turniyozov to'g'ri ta'kidlaganidek, idioma nafaqat ma'noning, balki butun situatsiyaning ham prototipi bo'lib kelishi mumkin²⁸. Shu bois gap qolipidagi frazemalar kauzativ jihatdan tahlil qilinib, o'z navbatida, ushbu mavzu alohida ilmiy tadqiqot ishi sifatida kun tartibiga qo'yilishi darkor.

²⁷ Bu haqda qarang: Turniyozov B.N. Kauzativ qurilmalar sintaktik derivatsiyasi. Monografiya. – Samarqand: SamDCHTI, 2022. – B.108.

²⁸ Qarang: Turniyozov B.N. Ko'rsatilgan asar. – B.110.

Z.R.Agleeva gap qolipidagi frazema deganda formal-grammatik jihatdan gap kabi shakllanib, individual va tipologik barqarorlikka ega bo'lgan birliklarni tushunadi²⁹.

Albatta, individual barqarorlik barcha turg'un birliklarga xos bo'lib, u orqali o'sha barqaror birlik ifodasi anglashiladi. Tipologik barqarorlikda esa turg'un birlik tizimning qaysi sathida faoliyat yuritishidan qat'i nazar, o'z barqarorligini yo'qotmaydi. Bu bilan biz olimaning fikriga e'tiroz bildirmoqchi emasmiz, ammo shu jihatdan olib qaralganda, Z.R.Agleeva ta'kidlagan barqarorlik tushunchalari faqat gap qolipidagi frazemalarga emas, balki barcha turg'un birliklarga xozdir.

Sintaktik frazeoloizmlarning tavsifi I.N.Kaygorodovanning asarida ham yoritildi. Muallif sintaktik frazemani struktur-semantik tuzilishi uning formal va ifodaviy tuzilmalari o'rtasida assimetrik munosabatlarni o'rnatish yo'li bilan shakllanadigan va gapning asl sintaktik kategoriyalarining o'zgarishi natijasida erishiladigan, turg'unlik kasb etuvchi alohida belgi deb tushunadi³⁰.

Bizningcha, I.N.Kaygorodovanning mazkur fikri gap qolipidagi frazemaning aniq ta'rifidir. Masalan, Qo'y og'zidan cho'p olmagan degan gap qolipli frazemani olaylik. Olimaning bergan ta'rifiga oydinlik kiritish maqsadida ushbu frazemani tahlil qilib ko'ramiz:

1. Strukturaviy-semantik semantika. Muayyan ma'nolarni tushunish uchun elementar birliklardan yaralgan tushunchalarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi³¹.

Struktur-semantik tuzilish: qo'y, og'iz, cho'p, olmoq – uy hayvoni, uy hayvonining a'zosi, daraxtning shoxidan hosil bo'lgan predmet, harakat kabi tushunchalarni anglatuvchi struktur semantika.

2. Formal-ifodaviy tuzilma. Lingvistik ifodalardagi formal va semantik elementlarning aloqalarini o'z ichiga oladi³². Boshqacha ayganda, mavjud holat frazema ichki elementlari formalarining semantik hamda sintaktik aloqasini tashkil etadi. Bu mikrosintagmatik aloqa deb yuritiladi. O'z ishida so'z grammatikasini tadqiq etgan A.M.Turabov frazema ichki

²⁹ Bu haqda qarang: Аглеева З.Р. Фразеологизированные конструкции в разноструктурных языках. – Астрахань: Астраханск.гос.ун-т, 2016. – С.17.

³⁰ Qarang: Кайгородова И.Н. Проблема синтаксической идиоматики (на материале русского языка). Монография. – Астрахань: Изд-во Астраханского гос.пед.ун-та, 1999. – С.17.

³¹ Qarang: Большой энциклопедический словарь. Языкознание. – М.: БЭС, 1998. – С.438-440; Nasirdinov O.A. Leksik va tarkibiy semantika – semantikaning turlari sifatida // Экономика и социум, 2023. – №7(110). – С.240-243.

³² Qarang: Руднев А.Г. Формальные признаки простого предложения. Elektron manba: 2121870v.fm Page 3 Wednesday, September 7, 2011 3:14 PM (Sahifaga 2025.08.01 da murojaat etildi).

strukturasiyning semantik hamda sintaktik tuzilishi haqida o'rinli mulohazani keltirib o'tadi: "Biz qa'tiy ravishda kichik sintaksisning tekshiruv obyekti sifatida so'z birikmalarining nutqdan tashqari holatini olamiz. Biroq ayni paytda so'z birikmalari komponentlari o'rtasida yashirin predikativlik alomati kuzatilishi mumkin. Masalan: Universitet talabasi. Bu o'rinda, albatta, sof nominativ birlik berilmoqda. Ammo shunday bo'lsa ham, birikmada quyidagicha tasavvur etilishi mumkin bo'lgan yashirin predikativlik alomatini ko'ra olamiz: Bu talaba universitetda o'qiydi. ...Kichik sintaksisning tekshiruv obyektlarini yasama va qo'shma so'zlar, turg'un so'z birikmalari orqali belgilash maqsadga muvofiqdir"³³.

Tahlilga olingan frazemaning formal va ifodaviy tuzilishi: qo'y+ning og'z+i+dan cho'p+ni ol+ma+gan (beozor). Assimetriya xususida to'xtaladigan bo'lsak, u muayyan tuzilmaning (aniqrog'i, til birligining) formal va mazmuniy tomonlari o'rtasidagi ifodalovchi hamda ifodalanuvchi xususiyatlari muvofiqligining buzilishiga olib keladi³⁴. Boshqacha aytganda, belgining mazmuniy rejasi bilan tuzilish (shakliy) rejasi mos kelmay qoladi. Gapning asl sintaktik kategoriyasi esa o'zgarib, nominativ yoki adyektiv birlikka teng kelib qoladi. O'z navbatida, propozitsiyasi bo'sh o'rinlari to'ldirilishining imkoni bo'lmagan derivatni taqozo etadi.

V.Y.Melikyan tarkibiy qismlarga bo'linmaydigan gaplarning, gap qolipidagi frazemalarning lingvistik xususiyatlarini o'rganadi. Olim bunday birliklarni frazeologik chatishma va frazeologik birlashma kabi turlarga bo'lib, shu asosda ularning modellarini yaratib, frazeosxemalar hosil qilishini aytadi. Uning fikricha, frazeologik sxema yangi grammatik ko'rsatkichga ega bo'lgan, tipik propozitsiyalarning ifodalanishi usulidir³⁵.

Shuni aytish kerakki, V.Y.Melikyaning frazeosxema haqidagi qarashlari bu haqdagi mulohazalarimizga birmuncha yaqin turadi. Biz ularni tadqiqotimizning yuqoridagi sahifalarida yoritib o'tgan edik. Ammo V.Y.Melikyaning frazeologik birliklarni "birlashma", "chatishma" sifatida taqqiq etishi V.V.Vinogradovning tavsiflariga mos keladi va u bizning nazdimizda e'tirozli hisoblanadi. Negaki, biz frazemalarning "birlashma" va "chatishma" deb o'rganilishini yoqlamaymiz.

³³ Turabov A.M. Kichik sintaksis muammolari: Filol.fan.dok...diss.avtoref. – Samarqand: SamDCHTI, 2023. – C.16-17.

³⁴ Bu haqda qarang: Кайгородова И.Н., Крутова И.Н. Асимметричный дуализм в сфере предикативных единиц // Вестник Астраханского гос.тех.ун-та. Руб-ка: соц.гуман.исс., 2014. Т.2014. – №2. – С.121-126.

³⁵ Bu haqda qarang: Меликян В.Ю. Современный русский язык. Синтаксис нечленимого предложения. Учебное пособие. – Ростов-на-Дону: Изд-во РГПУ, 2004. – С.161; Меликян В.Ю. Фраzeосхемы как «результаты» процесса грамматикализации // Вопросы когнитивной лингвистики, 2022. – №4. – С.102-114.

Umuman, mazkur masala o'zbek tilshunosligida o'tgan asrning 80-yillarida o'z yechimini topgan edi. Jumladan, Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorovlarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida tilshunoslikda frazemalarning bu tarzda o'rganilishi to'g'ri emas deb tanqid ostiga olinadi: "Frazeologizm ifodalaydigan ma'noning komponentlari ma'no munosabatiga ko'ra ba'zi ishlarda "frazeologik birlik", "frazeologik qo'shilma", "frazeologik butunlik", ("frazeologik birlashma"), "frazeologik chatishma" kabi turlarga ajratiladi. Lekin bunday gruppalarning biron-bir amaliy ahamiyati yo'q. Bundan tashqari, yuqoridagi terminlar tarkibidagi "qo'shilma", "butunlik", "birlashma", "chatishma" so'zlari frazeologik ma'noning mohiyatini tushuntirishga yordam bermaydi. Frazeologizmlarda hech qanday "qo'shilish", "chatishish" kabi hodisa yo'q"³⁶. Ustozlarimiz to'g'ri ta'kidlaganlaridek, frazemalarni "frazeologik birlik", "frazeologik qo'shilma", "frazeologik butunlik", ("frazeologik birlashma"), "frazeologik chatishma" tarzida tasniflash masala mohiyatini chigallashtiradi, xolos.

Shunday qilib, mazkur ishda tilshunoalikda gap va uning o'rganilaishi holati, gap qolipidagi frazemalarning tavsifi xususida ilmiy mulohazalarimizni bayon etib o'tdik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – B.142.
2. Turabov A.M. Kichik sintaksis muammolari: Filol.fan.dok...diss.avtoref. – Samarqand: SamDCHTI, 2023. – C.16-17.
3. Turniyozov B.N. Kauzativ qurilmalar sintaktik derivatsiyasi. Monografiya. – Samarqand: SamDCHTI, 2022. – B.108.
4. Аглеева З.Р. Фразеологизированные конструкции в разноструктурных языках. – Астрахань: Астраханск.гос.ун-т, 2016. – С.17.
5. Архангельский В.Л. Проблема устойчивости фразеологических единиц и их знаковые свойства // Проблемы устойчивости и вариативности фразеологических единиц. Материалы межвуз. симпозиума. – Тула: Тульск. госпединститут, 1968. – С.21-29.

³⁶ Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – B.142.

6. Большой энциклопедический словарь. Языкознание. – М.: БЭС, 1998. – С.438-440;
7. Валгина Н.С. Синтаксис современного русского языка. – М.: Высшая школа, 1973. – С.14;
8. Кайгородова И.Н., Крутова И.Н. Ассиметричный дуализм в сфере предикативных единиц // Вестник Астраханского гос.тех.ун-та. Руб-ка: соц.гуман.исс., 2014. Т.2014. – №2. – С.121-126.
9. Кайгородова И.Н. Проблема синтаксической идиоматики (на материале русского языка). Монография. – Астрахань: Изд-во Астраханского гос.пед.ун-та, 1999. – С.17.
10. Меликян В.Ю. Современный русский язык. Синтаксис нечлененого предложения. Учебное пособие. – Ростов-на-Дону: Изд-во РГПУ, 2004. – С.161;
11. Меликян В.Ю. Фразеосхемы как «результаты» процесса грамматикализации // Вопросы когнитивной лингвистики, 2022. – №4. – С.102-114.
12. Nasirdinov O.A. Leksik va tarkibiy semantika – semantikaning turlari sifatida // Экономика и социум, 2023. – №7(110). – С.240-243.
13. Руднев А.Г. Синтаксис современного русского языка. – М.: Высшая школа, 1968. – С.34-35; Гвоздев А.Н. Современный русский литературный язык. II. – М.: Просвещение, 1973. – С.7.
14. Руднев А.Г. Формальные признаки простого предложения. Elektron manba: 2121870v.fm Page 3 Wednesday, September 7, 2011 3:14 PM (Sahifaga 2025.08.01 da murojaat etildi).
15. Турниёзов Б.Н. Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик курилмалар деривацияси. Монография. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2008. – Б.66.
16. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. – М.: Просвещение, 1972. – С.201-202.
17. Шодиев С.Э. Турғун сўз бирикмаларининг синтактик деривацияси: Филол.фан.б.фалс.док...дисс. – Самарқанд: СамДУ, 2020. – Б.16.
18. Якубинский Л.П. О диалогической речи // Избранные работы. Язык и его функционирование. – М.: Наука, 1986. – С.17-58.